

O'ZBEKISTONDA O'RTA SINIF VA SUN'IY INTELLEKT



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-24-427-432>

Karimova Gulziraxon Ahmadbek qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Falsafa kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

Toshkent O'zbekiston

Tel: (99)802-01-04

Gmail: gulzirakarimovaa@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida jamiyat taraqqiyotining asosiy ko'rsatkichlaridan biri — o'rta sinfning barqaror rivojlanishi muammolari tahlil etilgan. Muallif o'rta sinf har qanday davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tizimlarining tayanch ustuniga aylanishi kabi dolzarb masalalar ko'rib chiqqan. Shuningdek, mazkur maqolada iqtisodiyotni modernizatsiyalashning hozirgi bosqichida islohotlar yo'li bilan o'rta sinf safini kengaytirish va rivojlantirishda davlat siyosatining o'rnini oshirish tavsiya etilgan. Maqola sun'iy intellekt va o'rta sinf munosabatlari bilan qiziquvchi tadqiqotchilar uchun foydali manba hisoblanadi.

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt(SI), o'rta sinf, axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), dasturlash, raqamli transformatsiya, ish o'rinlari muhofazasi, IT Park, raqamli inklyuziya.*

MIDDLE CLASS AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN UZBEKISTAN

ANNOTATION

This article analyzes the problems of sustainable development of the middle class, one of the main indicators of social development in the era of globalization and digital transformation. The author considers such pressing issues as the middle class becoming the pillar of the economic, social and political systems of any state. Also, this article recommends increasing the role of state policy in expanding and developing the ranks of the middle class through reforms at the current stage of economic modernization. The article is a useful resource for researchers interested in artificial intelligence and the relationship between the middle class.

Keywords: artificial intelligence (AI), middle class, information and communication technologies (ICT), programming, digital transformation, job security, IT Park, digital inclusion.

KIRISH (Introduction). XXI asrning eng muhim texnologik yutuqlaridan biri — sunʼiy intellekt insoniyat hayotining barcha sohalariga kirib bormoqda. sunʼiy intellekt nafaqat ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish sohalarini, balki ijtimoiy tuzilmani ham tubdan oʻzgartirish kuchiga ega. Ayniqsa, kasb-hunarlar tarkibining oʻzgarishi, yangi turdagi ish oʻrinlarining paydo boʻlishi va mehnat bozorining transformatsiyasi natijasida oʻrta sinf tarkibi ham tubdan yangilanmoqda. Bu oʻzgarishlar Oʻzbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun ham jiddiy imkoniyatlar va xavflarni yuzaga keltirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI (Literature review). Oʻzbekistonda raqamli iqtisodiyot va sunʼiy intellekt texnologiyalarining huquqiy asoslari soʻnggi yillarda izchil shakllantirilmogda. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-oktabrdagi PQ–5177-sonli qarori orqali sunʼiy intellektni rivojlantirish boʻyicha 2030-yilgacha moʻljallangan konsepsiya qabul qilindi[1]. Shu bilan birga, “Yangi Oʻzbekistonni rivojlantirish strategiyasi” doirasida oʻrta sinfni kengaytirish va mustahkamlash ustuvor maqsad sifatida belgilangan[2].

Oʻrta sinf va sunʼiy intellekt oʻrtasidagi munosabatlar rivoji tezlikda oʻzgarib, rivojlanib borayotgan soha boʻlganligi sababli, mavzuga doir adabiyotlar nazariy va amaliy jarayonlar bilan izchil oʻrganishni va toʻgʻri belgilashni taqozo etmoqda. Oʻrta sinf va sunʼiy intellekt oʻrtasidagi munosabatlar zamonaviy jamiyatda tez surʼatda rivojlanayotgan dolzarb mavzulardan biridir. U.Hakimov va A.Saidov[3] SI texnologiyalari mehnat bozorida yangi talablarni yuzaga keltirayotganini, bu esa oʻrta sinf kasblarining qayta shakllanishiga olib kelayotganini taʼkidlaydi. M.Karimova[4] esa oʻrta sinfni raqamli kompetensiyalarga ega ijtimoiy qatlam sifatida tahlil qilgan. N.Axmedova[5] va R.Yunusov[6] SI taʼsirida raqamli tafovut, hududiy tengsizlik va inson kapitali muammolarini koʻrsatgan. Bu manbalar mavzuni nazariy va amaliy jihatdan yoritishda asos boʻlib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (Research Methodology). Mazkur maqolada muallif tomonidan jamiyatda oʻrta sinf oʻrnini oʻzgarishiga sunʼiy intellektning taʼsirini oʻrganishda kompleks yondashuv qoʻllanildi. Ilmiy tahlil, solishtirish, iqtisodiy tahlil, normativ-huquqiy tahlil va sintez usullari orqali mavzuga doir nazariy manbalar oʻrganildi. Shuningdek, oʻrta sinf va sunʼiy intellekt boʻyicha xalqaro amaliyotlar tahlili asosida jamiyatimiz uchun mos modellari koʻrib chiqildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR (Results and Discussions).

O'rta sinf tushunchasi sotsiologiya, iqtisodiyot va siyosatshunoslik fanlarida turlicha talqin qilinadi. G'arb olimlarining ko'pchiligi o'rta sinfni iqtisodiy imkoniyatlar, ta'lim darajasi, kasbiy maqom va ijtimoiy xavfsizlik kabi omillar bilan bog'laydi[7, 401-432]. O'zbekiston sharoitida esa o'rta sinfni aniqlashda daromad darajasi bilan birga, oilaning moliyaviy barqarorligi, mulkka egalik, yuqori va o'rta maxsus ta'lim, ishbilarmonlik faolligi ham muhim mezon hisoblanadi.

Sun'iy intellekt esa keng ma'noda inson aql-zakovati faoliyatlarini texnik vositalar yordamida takrorlashga va takomillashtirishga xizmat qiluvchi algoritmik tizimlar majmuasidir. Zamonaviy sun'iy intellekt texnologiyalari - mashinali o'rganish, katta ma'lumotlar, tabiiy tilni qayta ishlash, kompyuter ko'rish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Respublikamizda sun'iy intellekt tizimlari kibernetika, informatika va dasturlash, psixologiya, falsafa sohasida keng o'rganilmoqda. Jumladan, sun'iy intellekt tizimlarini falsafiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan tadqiq etish va rivojlantirishga o'z hissasini qo'shganlar safiga A.Q.Qodirov, U.Hakimov, M.Z.Abdullayeva, A.Saidov, Q.Nazarov, A.G.Muminov, B.R.Karimov, G.G'.G'affarova, A.I. Tulyayev, D.U.Qalandarova va A.A. Boboqulov kabi faylasuf-olimlarni kiritishimiz mumkin [8,4]. Sun'iy intellekt sohasiga oid murakkab va dialektik falsafiy muammolarni ushbu tizimlarning qo'llanilishidagi axloqiy masalalar, uning ijtimoiy ahamiyati, ong va intellektning tabiati, sun'iy intellekt bilan bog'liq ontologik masalalar hamda tanlov(iroda) erkinligi tashkil etadi. Mazkur muammolarni falsafiy jihatdan o'rganish sun'iy intellekt tizimlarining jamiyatdagi ijtimoiy pozitsiyasini, uning borlig'ini, bilishdagi ahamiyatini aniqlashda, shuningdek uning imkoniyatlaridan samarali foydalanishda xizmat qiladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi o'rta sinfning ijtimoiy-iqtisodiy holati va strukturasi sezilarli ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Ushbu jarayon yangi ish o'rinlari va malakalar talablarini yuzaga keltirib, o'rta sinfni sifat jihatdan yangilanishiga imkon berayapti. Biroq raqamli nomutanosiblik, hududiy tafovutlar va malakadagi kamchiliklar o'rta sinfning barcha qatlamlariga teng ta'sir ko'rsatmayapti.

Bunday chora-tadbirlar orqali O'zbekistonda o'rta sinfning barqaror o'sishi va sun'iy intellekt texnologiyalari sharoitida yangi iqtisodiy realiyalarga moslashuvi ta'minlanadi. Natijada, mamlakatning raqamli iqtisodiyotga integratsiyasi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti mustahkamlanadi.

Shu bois, davlat siyosati sun'iy intellekt sohasidagi huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, o'rta sinfni raqamli ko'nikmalar bilan ta'minlash va hududlar o'rtasidagi raqamli tafovutni kamaytirishga yo'naltirilishi lozim. Buning uchun ta'lim, qayta tayyorlash dasturlari va infratuzilma bo'yicha teng imkoniyatlarni yaratish muhim ahamiyatga ega. Bunday chora-tadbirlar orqali O'zbekistonda o'rta sinfning barqaror o'sishi va sun'iy intellekt texnologiyalari sharoitida yangi iqtisodiy o'zgarishlarga moslashuvi ta'minlanadi. Natijada, mamlakatning raqamli iqtisodiyotga integratsiyasi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti mustahkamlanadi.

O'zbekiston Mehnat vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilga kelib raqamli ko'nikmalarga ega bo'lmagan fuqarolarning ishga joylashish koeffitsienti sezilarli darajada pasaygan. Ayniqsa, ofis ishchilari, bank xodimlari, boshlang'ich muhandislar va buxgalterlar kabi an'anaviy o'rta sinf kasblari SI tomonidan avtomatlashtirish xavfi ostida qolmoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellektni boshqarish, ma'lumotlarni tahlil qilish, IT-xavfsizlik va dasturlash kabi yo'nalishlar yangi o'rta sinf vakillari uchun o'sish maydoniga aylanyapti.

Masalan, 2024-yilda Toshkentdagi IT Park doirasida tashkil etilgan texnologik inkubatsiya markazlarida ish boshlagan yosh mutaxassislarning ko'pchiligi o'rta darajadagi daromadga ega bo'lgan, raqamli savodxonligi yuqori qatlamga mansub ekani qayd etilgan. Bu holat shuni ko'rsatadiki, SI texnologiyalari o'rta sinfning sifat jihatdan yangilanishiga sabab bo'lmoqda.

Sun'iy intellektning joriy etilishi o'rta sinfning o'z ichida ham raqamli tabaqalanish xavfini keltirib chiqaradi. Raqamli ko'nikmalar, texnologik vositalarga egalik, til bilimi va ta'limga kirish imkoniyatidagi tafovutlar bu qatlamning bir qismini yangi iqtisodiy muhitdan chetda qoldirish ehtimolini kuchaytiradi. Shu jihatdan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi nafaqat infratuzilmani, balki inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. O'rta sinf vakillarining texnologik moslashuvchanligi, kasbiy tayyorgarligi va raqamli kompetensiyalari ularning sun'iy intellekt muhitidagi pozitsiyasini belgilaydi.

O'zbekistonda o'rta sinf uchun ijtimoiy lift funksiyasini bajaruvchi yo'nalishlardan biri - IT sohasiga kirish imkoniyatlarining kengayishi bo'lib qolmoqda. “One Million Uzbek Coders” dasturi[9] orqali o'z kasbini o'zgartirgan minglab yoshlar va o'rta yoshdagi fuqarolar qisqa muddat ichida raqamli sohalarga o'tayapti. Bu holat o'rta sinfning SI sharoitidagi ijtimoiy mobilitetini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Biroq ayni paytda bu mobilitetning hududiy tengsizlik bilan cheklangani ham kuzatiladi: SI texnologiyalari asosan Toshkent va yirik shaharlarda keng

tarqalayotgani sababli viloyat va chekka hududlardagi o'rta sinf vakillari ushbu jarayonda nisbatan sustroq ishtirok etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi to'g'risida”[2]gi farmonida o'rta sinfni kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, malakali kadrlar tayyorlash va hududlararo iqtisodiy tenglikni ta'minlash asosiy yo'nalishlar sifatida belgilangan. Ushbu hujjatda quyidagi:

- Ishbilarmonlik muhiti va xususiy sektor ulushini kengaytirish;
- O'rta sinfni tashkil etuvchi kasb va malakalarni qayta ko'rib chiqish;
- Texnik va raqamli kasb-hunarlariga bo'lgan ehtiyojni qondirish kabi muhim

maqsadlar ko'zda tutiladi.

Bundan tashqari, “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategik dasturida sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va raqamli xizmatlarni aholi, ayniqsa, o'rta daromadli qatlam uchun ommaviylashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi o'rta sinfning ijtimoiy-iqtisodiy holati va strukturasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu jarayon yangi ish o'rinlari va malakalar talablarini yuzaga keltirib, o'rta sinfni sifat jihatdan yangilanishiga imkon bermoqda. Biroq raqamli nomutanosiblik, hududiy tafovutlar va malaka tayyorgarligidagi kamchiliklar o'rta sinfning barcha qatlamlariga teng ta'sir ko'rsatmayapti.

Shu bois, davlat siyosatining samarali yo'naltirilishi uchun sun'iy intellekt sohasida huquqiy-me'yoriy bazani yanada takomillashtirish, o'rta sinfni raqamli va texnologik ko'nikmalar bilan jihozlash maqsadida ta'lim va kasbiy qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish hamda hududlar o'rtasidagi raqamli tengsizlikni kamaytirish uchun infratuzilma va moliyaviy resurslarni muvozanatli taqsimlash zarur. Bu orqali mamlakatda innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlanadi hamda ijtimoiy tengsizlik darajasi pasayadi. Bunday chora-tadbirlar orqali O'zbekistonda o'rta sinfning barqaror o'sishi va sun'iy intellekt texnologiyalari sharoitida yangi iqtisodiy realiyalarga moslashuvi ta'minlanadi. Natijada, mamlakatning raqamli iqtisodiyotga integratsiyasi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti mustahkamlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR (Conclusion/Recommendations).

O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi iqtisodiyot, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida yangi imkoniyatlar ochmoqda. Bu esa o'rta sinfning shakllanishi va mustahkamlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, bu jarayon bilan birga keladigan ijtimoiy tengsizlik, raqamli tafovut va ishsizlik xavflariga qarshi ilg'or siyosiy choralar zarur.

O‘zbekistonda sun’iy intellekt va o‘rta sinf munosabatlarini rivojlantirish uchun mazkur maqolada quyidagi takliflar:

- Axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish;
- Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida startaplar va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash;
- Xalqaro hamkorlik va tajriba almashinuvi;
- Ijtimoiy barqarorlik va ish o‘rinlari muhofazasi;
- Axborot savodxonligini oshirish va raqamli inklyuziya bo‘yicha qo‘shimchalar kiritish ilgari surildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5177-son qarori. "Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida". — 2021-yil 26-oktabr. <https://lex.uz/docs/5704566>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-son Farmoni. "Yangi O‘zbekistonni 2022–2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida". — 2022-yil 28-yanvar. <https://lex.uz/docs/5841063>
3. Khakimov, U., & Saidov, A. (2022). Artificial Intelligence and the Future of the Uzbek Labor Market. — Central Asian Journal of Social Sciences and Humanities, Vol. 3(6), 15–22.
4. Karimova, M. (2021). Sun’iy intellektning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta’siri. — Iqtisodiyot va ta’lim, №4(52), 112–118.
5. Axmedova, N. (2023). Sun’iy intellekt va raqamli transformatsiya: O‘zbekiston tajribasi. — TDIU Ilmiy jurnali, №2, 45–52.
6. Yunusov, R. (2023). Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalining rivojlanish omillari. — Innovatsion rivojlanish jurnali, №1(17), 25–33.
7. Дрейфус Х.Л., Дрейфус С.И. Создание сознания vs. Моделирование мозга: искусственный интеллект вернулся на точку ветвления // Аналитическая философия. Становление и развитие. Антология. М., 1998. С. 401-432.
8. Boboqulov A.A. Ongning sun’iy modeli va uning ijtimoiy ahamiyati. Fals. fan. Bo’y. fals. dok. (PhD) ... dis. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2020. – 49 b.
9. <https://uzbekcoders.uz/ru/about-us>